



Turizm sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish
bo'yicha tarmoq kengashi

Turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Turizm sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-018



I. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi (keyingi o'rinlarda TMR) O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi hamda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, "Turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish" sohasiga oid malaka darajalarining yagona tizimini belgilaydi. TMR mazkur sohadagi mutaxassislar uchun belgilangan malaka darajalarini yagona tizim asosida tasniflaydi, shuningdek, kasbiy standartlarni ishlab chiqish, sohada malakani baholash hamda mutaxassislarning malakasini milliy va xalqaro darajada tan olish tizimlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu TMRning asosiy maqsadi – Milliy malakalar ramkasiga muvofiq ravishda turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohaslarida kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha tizimlashtirish, ularga qo'yiladigan malaka talablari, zarur bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni aniqlash orqali mazkur sohalarda mehnat resurslarining raqobatbardoshligini oshirish hamda malakalarni tan olish, baholash va rivojlantirish tizimini shakllantirish hisoblanadi.

TMRning asosiy vazifalari:

tarmoq malaka darajalarining yagona shkalasini belgilash va ularni tarmoq sohalari doirasida muvofiqlashtirish;

amaldagi va yangi shakllanayotgan kasb va lavozimlarni malaka darajalari asosida guruhlash, ularning mehnat faoliyati doirasini aniqlashtirish hamda kasbiy yo'nalishdagi xaritani ishlab chiqish;

sohaga oid kasbiy standartlar, ta'lim mazmuni va baholash mezonlarini ishlab chiqish uchun zarur metodik va konseptual asos yaratish;

tarmoqlararo o'zaro bog'liq kompetensiyalar va malaka turlarini aniqlash orqali mehnat resurslarining mobilligini ta'minlash;

mutaxassislarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash hamda tasdiqlash jarayonlari uchun ilmiy-uslubiy asos yaratish;

mehnat bozori ehtiyojlariga javob beruvchi, kasbiy jihatdan tayyorlangan, moslashuvchan va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qilish;

kasbiy standartlarni ishlab chiqishda, malaka darajalarini belgilashda va kadrlar tayyorlash strategiyasini shakllantirishda tarmoqdagi amaldagi hamda

istiqbolli texnologik tendensiyalarni inobatga olgan holda kasbiy faoliyatga qo'yiladigan zamonaviy talablarni aniqlash.

TMRda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

chiqish turizmi – O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning boshqa mamlakatga sayohati;

ekskursant – vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) tunab qolmasdan yigirma to'rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxs;

ekskursiya yetakchisi – turistlar va ekskursantlarni muayyan turistik resurs bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs;

gid (gid-tarjimon) – axborotga oid va tashkiliy xizmatlar ko'rsatish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) turistik resurslar bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

ichki turizm – O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohatini o'z ichiga oladi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

Kirish turizmi – O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohati;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehmonxona – joylashtirishni va ko'pgina hollarda ovqatlanishni ta'minlovchi, ro'yxatga olish bo'limiga, xizmatlar va qo'shimcha qulayliklarga ega bo'lgan korxona;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

turist – vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to'rt soatdan ketma-ket o'n ikki oygacha bo'lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs;

turistik vaucher – turistning tur tarkibiga kiruvchi xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va ularning haqi to'langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat;

turistik xizmatlar – joylashtirish, ovqatlantirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko'rsatish bo'yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar;

turistik yo'nalish – sayohat vaqtida turist, ekskursant tashrif buyuradigan asosiy joylarning ro'yxati bo'yicha turistning, ekskursantning rejalashtirilgan harakatlanish yo'li;

turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi);

turizm sohasining subyektlari – turistik xizmatlar majmuini yoki ularning bir qismini ko'rsatish, qo'shimcha turistik xizmatlarni (ishlarni) bajarish hamda turistlar va ekskursantlarga tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

turoperator va turagent faoliyati – turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib etish va realizatsiya qilishning yuridik shaxs tomonidan amalga oshirilishi.

yo'riqchi-yo'l boshlovchi – turistik yo'nalishlarda turistlar va ekskursantlarga hamrohlik qilish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs.

TMRni ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-433-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori, O'z MSt 640:2025. (IFUT-2.1);

O'z MSt 641:2025. 2025-yil 18-iyuldagi Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori MMK 2025;

O'z DSt ISO 22000:2019. Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini boshqarish tizimlari, Oziq-ovqat mahsulotlari yaratish zanjirida ishtirok etayotgan tashkilotlarga qo'yiladigan talablar;

O'z DSt ISO18513:2017. Turizm xizmatlari. Mehmonxona va turistlarni joylashtirish vositalarining boshqa turlari. Atamashunoslik;

O'z DSt ISO14785: 2018. Turizm axborot byurolari. Turizm axboroti va qabul qilish xizmatlari. Talablar;

O'z DSt 3331:2018. Turizm xizmatlari. Turizm sohasida navigatsiya tizimining axborot belgilari. Umumiy talablar;

O'z DSt 3334:2018 Turizm xizmatlari. Musulmon mehmondo'stligi. Talablar;

O'z DSt 3336:2018. Turizm xizmatlari. Talablar;

O'z DSt 3417:2019. Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalarida xizmat ko'rsatadigan xodimlarga doir umumiy talablar;

O'z DSt 3418:2019. Turizm xizmatlari. Turoperator va turagentlar xodimlariga doir umumiy talablar;

O'z DSt 3459:2019. Turizm xizmatlari. Tog' chang'isi trassalari. Tasniflash tizimi;

O'z DSt ISO 13009: 2019. Turizm xizmatlari. Plyaj faoliyatiga doir talablar va tavsiyalar;

O'z DSt EN 13809:2019 (EN 13809:2003, IDT). Turizm xizmatlari. Turoperatorlar va turagentlar. Atamashunoslik;

O'z DSt ISO18065: 2019. Turizm xizmatlari. Qo'riqlanadigan tabiiy hududlarning ma'muriyati tomonidan taqdim etiladigan, umumiy foydalanish uchun turizm xizmatlari. Talablar;

O'z DSt 37.001:2020. Korxonalar faoliyatining xavfsiz sharoitlarini standartlar tizimi. Turistik industriya obyektlarida xavfsiz turistik xizmatlar ko'rsatishga doir tavsiyalar;

O'z DSt ISO 13811:2022. Turizm va unga bog'liq xizmatlar. Joylashtirish vositalari uchun ekologik talablarni ishlab chiqish bo'yicha qo'llanma;

O'z DSt ISO 21401:2022. Turizm va u bilan bog'liq bo'lgan xizmat turlari. Joylashtirish vositalarining barqaror rivojlanishini boshqarish tizimi. Asosiy talablar;

O'z DSt ISO 22525:2022. Turizm va unga bog'liq xizmatlar. Tibbiy turizm. Xizmat ko'rsatishga doir talablar;

O'z DSt 22483:2022. Turizm va yondosh xizmatlar. Mehmonxonalar. Xizmatlarga doir talablar;

O'z DSt ISO 17679:2022 (ISO 17679:2016, IDT). Turizm va yondosh xizmatlar. Sog'lomlashtiruvchi spa-kurort. Xizmatlarga doir talablar;

O'z DSt ISO 21102:2022 (ISO 21102:2020, IDT). Sarguzasht turizmi. Yetakchilar. Xodimlarning layoqatliligi;

O'z DSt ISO 21902:2022 (ISO 21902:2021, IDT). Turizm va yondosh xizmatlar. Barcha uchun maqbul turizm. Talablar va tavsiyalar;

O'z DSt ISO 21426:2022. Turizm va yondosh xizmatlar. Sanatoriy-kurortda davolash. Xizmatlarga doir talablar;

O'z DSt 3612:2022. Turistik – ekskursiya xizmati Sayyohlarni o'tovda qabul qilish va joylashtirish. Umumiy talablar;

O'z DSt ISO 21101:2022. "Sarguzasht turizmi. Xavfsizlikni boshqarish tizimlari. Talablar";

O'z DSt ISO 21103:2022. Sarguzasht turizmi. Ishtirokchilar uchun ma'lumot;

O'z DSt ISO 13810:2023 (ISO 13810:2022, IDT). Turizm va unga bog'liq xizmatlar turlari. Sanoat, tabiiy, madaniy va tarixiy joylarga tashrif buyurish. Talablar va tavsiyalar;

O'z DSt 3220:2023. Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiy talablar;

O'zMSt 125:2024. Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi;

O'zMSt 189:2024. Turizm xizmatlari. Modulli mehmonxonalar. Tasniflash tizimi;

O'zMSt 190:2024. Turizm xizmatlari Glampinglar va o'tovlar. Tasniflash tizimi;

O'zMSt 136:2024. Turizm xizmatlari Yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlariga doir talablar;

O'zMSt 137:2024. Turizm xizmatlari. Faol turistik marshrutlarning yagona tasnifi. Umumiy talablar;

O'zMSt 138:2024. Turizm xizmatlari Gid (gid-tarjimonlar), ekskursiya yetakchilariga doir talablar;

O'zMSt 139:2024. Turizm xizmatlari. Ekskursiya xizmatlari. Umumiy talablar;

O'zMSt 167:2024. Madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash. Ilmiy va loyiha hujjatlarining umumiy tushunchalari, tarkibi va mazmuni. Atamalar va ta'riflar;

O'zMSt 168:2024. Madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash. Muzei faoliyati. Atamalar va ta'riflar;

O'zMSt 169:2024. Turizm xizmatlari. Voyaga yetmagan turist/ekskursantlar uchun xizmatlar. Umumiy talablar;

O'z DSt 3220:2017 "Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiy talablar" O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti.

Asosiy qisqartmalar:

OTM – Oliy ta'lim muassasalari;

MICE – Meetings Incentives Conferences Events — bu korporativ tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan ish safari turizmi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK– Mashg'ulotlar milliy klassifikatori;

ISO – xalqaro standartlashtirish tashkiloti;

O'z DSt – O'zbekiston Davlat Standarti'

O'z MSt – O'zbekiston Milliy Standarti'

IDT – bu "bir xil" degan ma'noni beradi hamda xalqaro va milliy standartlarni uyg'unlashtirishdagi belgilardan biri;

1. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish sohalari - bu aholining sayohat va dam olish ehtiyojlarini qondirish, mehmonxona, transport, ovqatlanish va ekskursiya xizmatlarini ko'rsatish orqali iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish tarmog'ida muhim o'rin egallaydi. U yangi ish o'rinlari yaratish, hududlar jozibadorligini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Turizm mehmonxona va umumiy ovqatlanish sohasidagi TMR quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

H — Tashish va saqlash;

I — Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar;

J — Axborot va aloqa;

N — professional, ilmiy va texnik faoliyat;

O — Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish;

S — San'at, ko'ngil ochish va dam olish;

T — Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasida Turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish sohalaridagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

No	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	C seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat	10 Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	10.7 Non va xamirdan tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqarish	10.71 Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish	10.71.0 Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish
				10.72 Suxari, pechene, xamirdan tayyorlangan uzoq saqlanadigan qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish	10.72 Suxari, pechene, xamirdan tayyorlangan uzoq saqlanadigan qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish
				10.73 Unli mahsulotlar ishlab chiqarish	10.73.0 Unli mahsulotlar ishlab chiqarish
2	H seksiya Tashish va saqlash	52 Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati	52.2 Tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari	52.29 Tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari	52.29.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan, tashish jarayonidagi

					boshqa kuzatib borish xizmatlari
3	I seksiya Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	55 Yashash bo'yicha xizmatlar	55.1 Mehmon-xonalar va shunga o'xshash yashash joylari	55.10 Mehmon-xonalar va shunga o'xshash yashash joylari	55.10.0 Mehmon-xonalar va shunga o'xshash yashash joylari
			55.2 Dam olish kunlarida va boshqa qisqa yashash muddatlarida turar joy bilan ta'minlash	55.20 Dam olish kunlarida va boshqa qisqa yashash muddatlarida turar joy bilan ta'minlash	55.20.0 Dam olish kunlarida va boshqa qisqa yashash muddatlarida turar joy bilan ta'minlash
			55.3 Turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar	55.30 Turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar	55.30.0 Turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar
			55.9 Yashash uchun boshqa joylar xizmatlari	55.90 Yashash uchun boshqa joylar xizmatlari	55.90.0 Yashash uchun boshqa joylar xizmatlari
		56 Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha xizmatlar	56.1 Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar	56.10 Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar	56.10.0 Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar
			56.2 Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	56.21 Buyurtma bo'yicha ovqat yetkazib berish	56.21.0 Buyurtma bo'yicha ovqat yetkazib berish
				56.29 Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	56.29.0 Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari
			56.3 Ichimlik yetkazish	56.30 Ichimlik yetkazish	56.30.0 Ichimlik yetkazish
4	J seksiya Axborot va aloqa	63 Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat	63.9 Axborot xizmatlarining boshqa turlari	63.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat	63.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat
5	N seksiya professional , ilmiy va	70 Bosh kompaniyalar faoliyati va boshqaruv	70.2 Tijorat faoliyati va boshqaruv masalalari	70.22 Tijorat faoliyati va boshqaruv masalalari	70.22.0 Tijorat faoliyati va boshqaruv masalalari

	texnik faoliyat	masalalari bo'yicha maslahat berish	bo'yicha maslahat berish	bo'yicha maslahat berish	bo'yicha maslahat berish.
		73 Reklama faoliyati va bozor konyunkturasini o'rganish	73.2 Bozor konyunkturasini tadqiq qilish va jamoatchi fikrini o'rganish	73.20 Bozor konyunkturasini tadqiq qilish va jamoatchi fikrini o'rganish	73.20.0 Bozor konyunkturasini tadqiq qilish va jamoatchi fikrini o'rganish.
6	O seksiya Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	79 Turoperatorlar, turagentlar va boshqa turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyati	79.1 Turistik agentliklar va turoperatorlar faoliyati	79.11 Turistik agentliklar faoliyati	79.11.0 Turistik agentliklar faoliyati
				79.1 Turoperatorlar faoliyati	79.12.0 Turoperatorlar faoliyati
		82 Ma'muriy boshqaruv, xo'jalik va boshqa yordamchi xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat	79.9 Joy bron qilish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog'liq xizmatlar	79.90 Joy bron qilish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog'liq xizmatlar	79.90.0 Joy bron qilish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog'liq xizmatlar
			82.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan, xo'jalik faoliyatiga yordamchi xizmat ko'rsatish	82.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, xo'jalik faoliyatiga yordamchi xizmat ko'rsatishning boshqa turlari	82.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan, xo'jalik faoliyatiga yordamchi xizmat ko'rsatishning boshqa turlari
7	S seksiya San'at, ko'ngil ochish va dam olish	93 Sport, dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish sohasidagi faoliyat	93.2 Dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish bo'yicha boshqa faoliyat	93.29 Dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish bo'yicha boshqa faoliyat	93.29.0 Dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish bo'yicha boshqa faoliyat
8	T seksiya Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	96 Boshqa shaxsiy xizmatlar ko'rsatish	96.0 Boshqa shaxsiy xizmatlar ko'rsatish	96.09 Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	96.09.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

No	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
2	14110	Vaqtinchalik yashash xizmati ko'rsatish sohasidagi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari (obyekt rahbarlari)
3	14120	Umumiy ovqatlanish xizmatlari sohasidagi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari (obyekt rahbarlari)
4	14390	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan boshqa soha xizmatlari rahbarlari, b.g.k.
5	24311	Marketing va bozor tadqiqotlari bo'yicha tahlilchilar
6	33410	Ma'muriyat ishlarini tashkil etish, ijro etish bo'yicha yordamchi xodimlar
7	33430	Ma'muriyat yordamchi xodimlari
8	34120	Ijtimoiy soha xodimlari
9	34230	Fitnes klublari yo'riqchilari, sport dam olish maskanlari va sport dasturlarining tashkilotchilari
10	34340	Bosh-oshpazlar
11	42210	Sayyohlik va transport agentliklari (sayohat byurolari) xodimlari
12	42241	Mehmonxona yoki turizm muassasasidagi qabul xodimi
13	43233	Quruqlik transporti xodimlar
14	51130	Turistik gidlar va ekskursiya yetakchilari
15	51200	Oshpazlar
16	51310	Ofitsiantlar va barmenlar
17	51320	Bufetchilar
18	51510	Xo'jalik ishlarini yuritish bo'yicha yordamchilar va iqtisodchilar
19	51530	Bino nozirlari
20	75121	Novvoylar
21	75122	Qandolatchilar
22	91121	Mehmonxona xizmatchilari va farroshlari
23	94120	Oshxona yordamchisi
24	96210	Kuryerlar, yuk tashuvchilar, shveysarlar va boshqa shu kabi ishchilar
25	96290	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan malakasiz xodimlar, b.g.k.

2. Tarmoq tahlili

Tarmoq kengashi Turizm qo'mitasi huzurida tashkil etilgan bo'lib, mijozlarning sayohat, turar joy va ovqatlanish ehtiyojlarini qondirish maqsadida sifatli, xavfsiz va samarali xizmatlarni tashkil etish, ushbu xizmatlarni ko'rsatish jarayonini boshqarish hamda sohaning rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Turizm – bu shaxslarning doimiy yashash joyidan vaqtincha tashqariga chiqib, dam olish, ma'naviy, madaniy yoki boshqa maqsadlarda sayohat qilishi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Turizmning shakllari va turlari, asosan, sayohatning geografik yo'nalishi, maqsadi, tashkil etilish usuli hamda davomiyligiga qarab farqlanadi.

Turizmning shakllari.

Turizm ikki asosiy shaklda amalga oshiriladi: xalqaro turizm va ichki turizm.

Xalqaro turizm – bu bir davlat hududidan tashqarida amalga oshiriladigan sayohatlar majmuasidir. U quyidagi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi:

Kirish turizmi (inbound tourism) — Oʻzbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning Oʻzbekiston hududiga sayohat qilishini bildiradi. Kirish turizmi mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash, milliy iqtisodiyotga xorijiy valyuta tushumlarini oshirish, madaniy almashinuvni rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi;

Chiqish turizmi (outbound tourism) — Oʻzbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqarolarning dam olish, oʻqish, sogʻlomlashtirish, ishbilarmonlik va boshqa maqsadlarda boshqa mamlakatlarga sayohat qilishini anglatadi. Ushbu turizm shakli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va fuqarolarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi;

Ichki turizm — bu Oʻzbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning mamlakat ichida, yaʼni Oʻzbekiston hududi boʻylab amalga oshiriladigan sayohatlarini oʻz ichiga oladi. Ichki turizmning rivojlanishi hududiy iqtisodiyotlarni jonlantiradi, mahalliy aholi bandligini oshiradi hamda milliy madaniy merosni saqlash va targʻib etishda muhim omil hisoblanadi.

Turizmning turlari.

Turizm turlari sayohatning maqsadi, yoʻnalishi, mavzusi, davomiyligi, harakatlanish vositasi va tashkil etilish shakliga qarab farqlanadi. Quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

Madaniy-tarixiy turizm – mamlakatning tarixiy yodgorliklari, muzeylari, meʼmoriy obidalar va madaniy merosi bilan tanishishga qaratilgan sayohatlar.

Ziyorat (diniy) turizmi – diniy maskanlar, muqaddas joylar va ziyoratgohlarni ziyorat qilish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlar.

Ekologik turizm (eko-turizm) – tabiiy muhitni asrab-avaylash, ekologik madaniyatni oshirish hamda tabiiy goʻzalliklardan masʼuliyatli foydalanishni koʻzda tutadi.

Maʼrifiy turizm – bilim va tajriba orttirish, oʻquv yoki ilmiy maqsadlarda tashkil etiladigan sayohatlar.

Etnografik turizm – turli millatlarning urf-odatlar, anʼanalari, hayot tarzi va xalq amaliy sanʼati bilan tanishishga yoʻnaltirilgan turizm turi.

Gastronomik turizm – milliy taomlar, oshxona anʼanalari va mahalliy mahsulotlarni tatib koʻrish hamda ularni oʻrganishga qaratilgan sayohatlar.

Ishbilarmonlik (biznes) turizmi – xalqaro anjumanlar, forumlar, koʻrgazmalar, muzokaralar va xizmat safarlari shaklida amalga oshiriladigan turizm turi.

Ijtimoiy turizm – aholining kam taʼminlangan, nogironligi boʻlgan, yoshlar yoki keksalar toifasiga mansub shaxslar uchun ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash asosida tashkil etiladigan sayohatlar.

Sport turizmi – sport musobaqalarida ishtirok etish yoki tomoshabin sifatida qatnashish, shuningdek, faol dam olish bilan bogʻliq sayohatlar.

Tibbiy (sog'lomlashtirish) turizmi – sog'liqni tiklash, sanatoriylar, kurortlar va davolash maskanlariga tashrif buyurish orqali amalga oshiriladigan turizm turi.

Yoshlar turizmi – o'quvchi va talaba yoshlar orasida madaniy, sport, o'quv va ijtimoiy maqsadlarda uyushtiriladigan sayohatlar.

Agroturizm (qishloq turizmi) – qishloq xo'jaligi faoliyati, dehqonchilik hayoti, an'anaviy hunarmandchilik va mahalliy madaniyat bilan tanishishga yo'naltirilgan sayohatlar.

Shuningdek, zamonaviy sharoitda virtual turizm, ekstremal turizm, sog'lom turmush tarziga asoslangan rekreatsion turizm kabi yangi yo'nalishlar ham shakllanmoqda.

Tarmoqning tarkibi quyidagi asosiy sohalardan iborat:

Turizm xizmati: sayyohlik faoliyati, ekskursiya va turar joy xizmatlari, sayohat agentliklari va operatorlari faoliyati;

Mehmonxona xizmati: mehmonxonalar, motellar, yotoqxona va boshqa turar joylarni boshqarish va xizmat ko'rsatish;

Umumiy ovqatlanish xizmati: restoranlar, kafe, oshxonalar, tez tayyorlanadigan ovqatlar tamaddixonalari va boshqa ovqatlanish markazlari faoliyati.

Turizm sohasi bugungi kunda eng jadal rivojlanayotgan iqtisodiy yo'nalishlardan biri bo'lib, davlat darajasida unga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, infratuzilmani mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro talablar darajasiga yetkazish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Tarmoqning faoliyati yillar kesimida (oxirgi 5 yil ichida):

2019-yili O'zbekiston uchun turizm sohasida eng muvaffaqiyatli yillardan biri bo'lgan. Tour Central Asia sayti¹ga ko'ra, jami 6,748,500 xalqaro turist tashrif buyurgan. Bu yil turizm sohasidan daromad \$1.68 milliardga yetgan, bu MacroTrends sayti²da tasdiqlangan. Eng ko'p turistlar Markaziy Osiyo mamlakatlaridan, xususan, 5,764,500 kishi ushbu hududdan kelgan.

2020-yili jahon miqyosidagi COVID-19 pandemiyasi tufayli turizm sezilarli pasayishni boshdan kechirdi. Tour Central Asia saytiga ko'ra, turistlar soni 1,504,100 ga tushib ketgan, bu 2019-yilga nisbatan deyarli 4 barobar kamayishni anglatadi. Turizm daromadlari ham pasayib, \$0.40 milliardga yetgan (MacroTrends sayti³ga ko'ra). Bu davrda xalqaro sayohatlar cheklangan va ichki turizmga e'tibor qaratilgan.

2021-yili pandemiya ta'sirining davom etishi tufayli turistlar soni 1,880,000 ga yetgan, bu Trade.gov sayti⁴da tasdiqlangan. Bu 2020-yilga nisbatan o'sishni ko'rsatadi, lekin hali ham pandemiya oldingi darajadan ancha past.

¹ <https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics/>

² <https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/UZB/uzbekistan/tourism-statistics>

³ <https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics/>

⁴ <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism>

2022-yili turizm sohasi qayta tiklanishga o'tgan, turistlar soni 5,200,000 ga yetgan (Trade.gov sayti⁵ga ko'ra). Turizm xizmatlari eksporti \$1.6 milliardga yetgan, bu iqtisodiy o'sishga hissa qo'shgan. Viza rejimi soddalashtirilgan va 90 davlat fuqarolari uchun viza bepul rejimi joriy qilingan, bu xalqaro turistlar sonini oshirishga yordam bergan.

2023-yili turistlar soni 6,600,000 ga yetgan, bu Tour Central Asia sayti⁶da tasdiqlangan. Bu 2019-yilgi 6,748,500 ga yaqinlashgan va pandemiya oldingi darajaga qaytishni ko'rsatadi. Turistlarning asosiy qismi qo'shni mamlakatlar va Yevropa Ittifoqi davlatlaridan kelgan.

2024-yilda O'zbekistonga 8,2 million chet el fuqarosi turistik maqsadlarda tashrif buyurgan, bu 2023-yilga nisbatan sezilarli o'sishni ko'rsatadi. Turizm sohasi \$3,5 milliard daromad keltirgan.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida 1,33 million chet el fuqarosi tashrif buyurgan, bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 37% ga oshgan.

Turizm sohasining barqaror rivoji malakali mutaxassislar tayyorlashni talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida uzluksiz ta'lim, malakalarni baholash va ularni yagona tizim asosida tartibga solishning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Hududlarda turizm va servis infratuzilmasi juda tez rivojlanmoqda.

Xususan, o'tgan 8 yilda mahalliy va xorijiy investorlar 6,5 milliard dollar sarmoya kiritib, 130 ming mehmonxona o'rni yaratdi. Bu yili ular yana 30 mingga ko'payadi.

Turizm mehmonxona va umumiy ovqatlanish sohasidagi ta'lim muassasalarining tahlili:

Oliy ta'lim muassasalari. O'zbekistonda turizm sohasida mutaxassislar tayyorlashi mumkin bo'lgan 38 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, bu sohaga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash tizimining yetarlicha rivojlanganligini ko'rsatadi. Dasturlar turizm va mehmonxona xizmati yo'nalishlarini qamrab oladi.

Oliy ta'lim muassasalari.

№	Oliy ta'lim muassasasi nomi	Ta'lim yo'nalishi
1	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
		Turizm (ziyosat turizmi)
		Menejment: turizm biznesini boshqarish
2	Qarshi muhandis-iqtisodiyot instituti	Aholi va turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisi
3	Buxoro davlat universiteti	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
		Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)
		Turizm (ziyosat turizmi)

⁵ <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism>

⁶ <https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics/>

No	Oliy ta'lim muassasasi nomi	Ta'lim yo'nalishi
4	Namangan davlat universiteti	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
		Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)
5	Termiz davlat universiteti	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
		Turizm (ziyosat turizmi)
		Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)
6	Farg'ona davlat universiteti	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)
7	Urganch davlat universiteti	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
		Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)
		Menejment: turizm biznesini boshqarish
8	"Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti	Kasb ta'limi (turizm)
		Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
		Menejment (turizm, mehmonxona va ommaviy tadbirlar)
		Menejment: mehmonxonalarni boshqarish
		Menejment (Turizm biznesini boshqarish)
		Menejment (xalqaro mehmondo'st va turizm)
		Menejment (ommaviy tadbirlar menejmenti)
		Menejment (Madaniy meros sohasi bo'yicha)
		Turizm sohasida marketing Marketing (turizm marketingi)
		Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
		Turizm sohasida loyihalash
		Turizm sohasida xizmatlar texnologiyasi va ularni tashkil etish
		Ommaviy tadbirlar menejmenti
		Turizm faoliyatida logistika
		Logistika (turizm yo'nalishi bo'yicha)
		Menejment (madaniy, tabiiy va aralash merosni boshqarish)
		Turizm (ziyosat turizmi)
		Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Mehmonxona biznesi
		Muзейshunos (turlari bo'yicha)
		Muзейshunos, tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash
		Turizm (turizm media va kommunikatsiya)
		Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)
9	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)
		Aholi va turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisi
10	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)

No	Oliy ta'lim muassasasi nomi	Ta'lim yo'nalishi
11	Qoraqalpoq davlat universiteti	Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
		Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)
12	Qarshi davlat universiteti	Turizm sohasida marketing (turizm marketingi)
		Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)
		Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)
13	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi	Turizm (ziyosat turizmi)
14	Samarqand davlat chet tillar instituti	Menejment (ziyosat turizmini tashkil etish va boshqarish)
15	Toshkent davlat sharqshunos universiteti	Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)
		Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
16	Andijon davlat universiteti	Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (sharq tillari)
		Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
17	Toshkent davlat agrar universiteti	Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (sharq tillari)
18	Toshkent davlat agrar universiteti Andijon	Turizm (agroturizm)
19	Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali	Turizm (agroturizm)
20	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	Turizm (agroturizm)
		Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (sharq tillari)
		Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
21	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotekhnologiyalar instituti	Turizm (turizm sohasida xizmatlar texnologiyasi va ularni tashkil etish)
22	Samarqand davlat universiteti	Turizm (agroturizm)
23	"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti	Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
24	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Chirchiq filiali	Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
25	K.Behzod nomidagi rassomchilik instituti	Sport turizmi
26	Andijon davlat chet tillari instituti	Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (ingliz tili)
27	Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti	Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
		Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
28	Namangan muhandis-texnologiya universiteti	Gid hamrohligi va tarjimon faoliyati (tillar bo'yicha)
29	Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
30	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi instituti	Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)
31	Mexanizatsiyalashgan muhandislar instituti	Aholi va turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisi

No	Oliy ta'lim muassasasi nomi	Ta'lim yo'nalishi
32	Buxoro muhandis-texnologiya instituti	Turizm
33	Toshkent Kimyo xalqaro universiteti	Turizm va mehmonxona ishi
34	Singapur Menejmentni rivojlantirish institutining Toshkent filiali	Turizm sohasida boshqaruv
35	Amity University Tashkent	Turizm
36	Emu University	Mehmonxona xo'jaligi va turizm
37	Stars International University	Turizm
38	Alfraganus University	Turizm

Kasbiy ta'lim (texnikumlar). O'zbekistonda soha mutaxassislarini tayyorlashi mumkin bo'lgan 10 ta texnikum mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich oliy ta'lim muassasalariga nisbatan ancha kam. Ushbu muassasalar mehmonxona va restoran biznesi, ekskursiya xizmatlari, turoperator faoliyati hamda jamoat ovqatlanish korxonalari uchun o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlaydi. Ta'lim amaliy tayyorgarlikka yo'naltirilgan bo'lib, bu bitiruvchilarning mehnat bozorida talabgor bo'lishini ta'minlaydi.

Kasbiy ta'lim (texnikumlar).

No	Kasbiy ta'lim muassasasi nomi	Ta'lim yo'nalishi
1	Andijon turizm va servis texnikumi	Turizm
		Mehmonxona faoliyatini tashkil etish
		Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish
2	Bo'stonliq turizm va servis texnikumi	Turizm
		Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish
3	Toshkent turizm va biznes texnikumi	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm
		Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish
4	Zomin turizm va servis texnikumi	Mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish
		Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish
		Turizm
5	Samarqand turizm va madaniy meros texnikumi	Turizm
		Servis va turizm
		Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
6	Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi	Turizm
		Mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish
		Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish
7	Shahrisabz turizm va madaniy meros texnikumi	Turizm
		Mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish
		Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish

No	Kasbiy ta'lim muassasasi nomi	Ta'lim yo'nalishi
		Ekologiya va atrof-muhitni himoya qilish
8	Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumi	Turizm
		Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish
9	Xiva turizm va madaniy meros texnikumi	Turizm
		Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish
10	Marg'ilon turizm va madaniy meros texnikumi	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish
		Turizm
		Servis va Turizm
		Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish

Nodavlat ta'lim muassasalari. Ushbu toifaga 86 ta muassasa kiradi, bu barcha ta'lim shakllari orasida eng ko'pidir. Xususi o'quv markazlari qisqa muddatli va tor ixtisoslashgan kurslarni taklif qilib, mutaxassislarni tezkor qayta tayyorlash yoki malakasini oshirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu tashkilotlar bozor talablariga moslashuvchanligi va turizm industriyasidagi o'zgarishlarga tez javob bera olish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Turistik kompaniyalar. O'zbekistonda 2000 dan ortiq litsenziyaga ega turistik kompaniyalar faoliyat yuritadi. Ushbu korxonalar ichki va xalqaro turizmni tashkil etish, ekskursiya xizmatlari, turoperator va turagent faoliyati bilan shug'ullanadi. Aksariyat kompaniyalar Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi yirik shaharlarda joylashgan bo'lib, asosiy turistik yo'nalishlar shu hududlarda joylashgan.

Turistik kompaniyalar

No	Kompaniyalar nomi	Xizmat ko'rsatish turlari
1	A'lo Angren	pazandachi
2	Alpha solutions	qandolatchi
3	Alpinizm ta'limi	sanoat alpinizmi, sport alpinizmi
4	Angel good luck	qandolatchi, shokoladli kompozitsiya, tortlarni bezatish, jahon taomlari, karving
5	Asian pearl-luxe	milliy taomlar oshpazi, qandolatchi, chet el taomlari oshpazi, karving
6	Diamond valley	qandolatchi va pazandachi
7	Do'rmon education	pazandachi
8	Don mahsulotlari ilmiy o'quv markazi	unli qandolat mahsulotlari texnologiyasi
9	Eko-tur ziyo	mehmonxona menejeri, restoran biznesi menejmenti, turizm menejmenti
10	Elegant buxoro o'quv servis	pazandachi
11	Elegant nukus	pazandachi
12	Elegant sharq ziyosi	pazandachi

No	Kompaniyalar nomi	Xizmat ko'rsatish turlari
13	Eng zukko ziyrak orasta	pazandachi va qandolatchi
14	Ever green knowledge bridge	pazandachi
15	Favorite study service	Karving, pazandachi va qandolatchi
16	Grand ta'lim maroqand	pazandachi va qandolatchi
17	Marra bizniki	pazandachi va qandolatchi
18	Mashhura Qumqo'rg'on	qandolatchi
19	Mubina ta'lim	Pazandachi
20	Mashriq mash'ali	Qandolatchi, bosh oshpaz, mehmonxona xizmatlari va xonalar fondi menejeri, restoranlarga xizmat ko'rsatish (ofitsiant tayyorlash), turoperator xizmatlar, pazandachi
21	Mubina ziyo	pazandachi va qandolatchi
22	Muharram universal intellekt	umumiy ovqatlanish
23	Nasiba ziyo	qandolat va non mahsulotlari, umumiy ovqatlanish texnologiyasi
24	Navro'z pazanda ta'lim	barmen, karving, ofitsiant, oshpaz, qandolatchi
25	New opportunity	Barmen, karving, oshpaz, qandolatchi
26	Nosir, Nodir, Feruza	administrator va bron qilish faoliyati, turagent va turoperator, turizm menejmenti, xonalar fondi menejeri
27	Parkent marjonlari	qandolatchi
28	Sherbek-shod servis	oshpaz
29	Tashbilim savdo	ofitsiant, oshpaz, qandolatchi
30	Travel study	mehmonxona va restoran biznesi menejmenti, ofitsiant-barmen, gid (ekskursovod)
31	Zamira simple study	pazandachi va qandolatchi
32	Xovoxon ziyosi	qandolatchi, pishiriq, salat va taom tayyorlash
33	Toshkentdagi singapur menedjmentni rivojlantirish instituti	turizm va mehmondo'stlik
34	Xalqaro o'zbek Pazandachi san'ati markazi	oshpaz, qandolatchi
35	Mashhura-ustoz	uyg'ur va yevropa taomlari, qandolatchi
36	Elegant imrona klass	oshpaz
37	Damira-nur	pazandachi
38	Umidjon mega star servis	qandolatchi va milliy taomlar tayyorlash
39	Renovation services group	umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va restoran sanoati
40	Mega edu	oshpaz, qandolatchi
42	Elegant center	pazandachi (oshpaz va qandolatchi)
43	Mansura nur	oshpaz mahorati va qandolatchi
44	Al-aziz denov	qandolatchi va milliy taomlar
45	Elegant nur ziyo plus	pazandachi, oshpaz va qandolatchi
46	Bibixonim ustoz	Qandolatchi malaka oshirish kursi, uyg'ur va yevropa taomlari

No	Kompaniyalar nomi	Xizmat ko'rsatish turlari
47	Umumiy ovqatlanish savdo va xizmat ko'rsatish korxonalari andijon viloyati birlashmasi	Oshpaz
48	Event-education	MICE turizm mutaxassisi
49	Zumrad ziyosi plus	karving, qandolatchi, pazandachi
50	Mashhura-ziyo	chet el taomlari oshpazi, tortlar, qandolatchi, milliy taomlar, karving, shokoladli kompozitsiya, uyg'ur taomlari
51	Iffatli kelin	chet el taomlari oshpazi, tortlar, qandolatchi milliy taomlar, karving, shokoladli kompozitsiya, uyg'ur taomlar, qandolatchi
52	O'ktamxon-nur-ziyo	Karving, oshpaz
53	Nukus ziyada nur	Pazandachi, chet el taomlari oshpazi mehmonxona va restoran menejeri
54	Travel system education	AMADEUS bronlashtirish tizimi, AMADEUS bronlashtirish tizimida elektron chiptani rasmiylashtirish, AMADEUS bronlashtirish tizimida tajribali foydalanuvchilar
55	KATIA-silk road destinations	ekskursiya gidlari,
56	Khorezm tarjimoni	mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari ma'muri, turoperator, xizmatkor xizmati, ekskursiya gidlari, ofitsiant, Samarqand ekskursiya xizmatlari, Buxoro ekskursiya xizmatlari
57	Umid gullari	pazandachi-qandolatchi
58	Aziz akaboyev karving maktabi	karving, pazandachi, qandolatchi
59	Lakos servis	turoperator
60	Zukko o'quv	qandolatchi
61	Be the change group	"Event school" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish
62	Marosim travel	gid(tarjimon)
63	Training center spetsialist	turoperator
64	The-pearl-group	mehmonxona xizmatlari, ekskursiya xizmatlari turizm faoliyati, restoran servisi, Gid, yo'l boshchi-yo'riqchi, xonalar fondi xizmatchisi
65	Bekobod kasb va intellektual ta'lim	Oshpaz
66	Mehmondo'st akademiyasi	mehmonxona xavfsizligi boshqarmasi xodimlari, mehmonxona muhandis xizmati bo'limi, mehmonxona marketingi, mehmonxona boshqaruv tizimi (boshqaruv) mehmonxona kir yuvish xizmati xodimlari, restoran xizmati xodimlari, mehmonxona xo'jaligida qabulxona xizmati bo'limi xodimlari, uy xizmatkori
67	Farg'ona ibratli begim	Pazandachi
68	Parizoda oltin yulduz	Pazandachi, oshpaz

No	Kompaniyalar nomi	Xizmat ko'rsatish turlari
69	Turizm va iqtisodiyot sohalarida kadrlar qayta tayyorlash Samarqand markazi	gid va turoperatorlar
70	Viloyat ayol va zamon	qandolatchi, oshpaz
71	"Sabr" respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi	qandolatchi
72	Discover academy	turizm xizmatlari
73	Gulshoda trans turizm	administrator, turoperator, mehmonxona farroshi
74	Fotima bonu	qandolatchi
75	Lider art education	qandolatchi, oshpaz
76	Scriber engineering arts	batler, ofitsiant, oshpaz-qandolatchi
77	Monolit sam	qabul qilish va joylashtirish xizmati, administrator tayyorlash, gid, mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari (xizmatchilar)da ma'muriy-xo'jalik xizmati, turoperator uchun trening, turoperatorni tayyorlash
78	The institute of qualified personnel	turizm va mehmondo'stlikni boshqarish
79	Steam-education	Pazandachi - qandolatchi
80	Tohir medical servis	mehmonxona, yotoqxona xodimlarini gigiyenik jihatdan malakasini oshirish
81	Shovot ziyo - nur	oshpaz (maktabgacha ta'lim tashkiloti oshpazi, qandolatchi, nonvoychi), turizm sohasi mutaxassisleri (ofitsiantlar)
82	Discovery fly	xalqaro va milliy mehmonxona xizmatlari ofitsiant
83	Buxoro viloyati turizm sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash markazi	ekskursiya ishi
84	Navoiy Biznes Maskani	turizm sohasi mutaxassisleri
85	Samarqand viloyati turizm va iqtisodiyotning real sektori sohasida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi	ekskursiya xizmati, turoperator faoliyati mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari ma'muri
86	Turizm va iqtisodiyot sohalarida kadrlar qayta tayyorlash Samarqand markazi	ekskursiya gidlarini qayta tayyorlash turoperatorlarni qayta tayyorlash

Joylashtirish obyektlari. Mamlakatda 1500 dan ortiq joylashtirish obyektlari mavjud bo'lib, ularga mehmonxonalar, xostellar, mehmon uylari va sanatoriylar kiradi. So'nggi yillarda kichik mehmonxonalar va oilaviy mehmon uylari soni oshib bormoqda, ayniqsa, madaniy va ekologik turizm rivojlangan hududlarda. Joylashtirish infratuzilmasi xalqaro xizmat ko'rsatish standartlariga mos kelishi uchun faol rivojlantirilmoqda.

Gidlarning umumiy soni. 2025-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan gidlar soni 3400 nafarga yetdi. Bu ko'rsatkich ekskursiya xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotgani va turizmning faol rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Hududlar bo'yicha taqsimot. Samarqand viloyati – gidlar soni bo'yicha yetakchi hudud (42%), bu mintaqaning yuqori turistik jozibadorligi bilan bog'liq. Toshkent – 25,1%, chunki u mamlakatning eng yirik transport va madaniy markazi hisoblanadi. Buxoro – 17,3%, tarixiy-madaniy yodgorlarning ko'pligi sababli gidlar bu hududda ham keng faoliyat yuritadi. Xorazm (Xiva) – 8,2%, arxitektura merosi va sayyohlar orasida mashhurligi bilan ajralib turadi.

Gidlarning gender tarkibi. Erkaklar – 1842 nafar (54%). Ayollar – 1579 nafar (46%). Gidlar orasida erkak va ayollarning soni deyarli teng, bu esa ekskursiya sohasida gender muvozanati shakllanganini ko'rsatadi.

Gidlarning til bilish darajasi. 42% gidlar faqat bitta tilda ekskursiya olib boradi. 12% gidlar uch tilda xizmat ko'rsatadi. 6% gidlar to'rt yoki undan ortiq tilda ekskursiya o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lib, ular xalqaro turizm sohasida eng talab yuqori mutaxassislardan hisoblanadi.

Assotsiatsiyalar va federatsiyalar. O'zbekistonda turizm va mehmonxona sohasini rivojlantirishda 12 tadan ortiq assotsiatsiya va federatsiya faol ishtirok etib, madaniy, gastronomik, tibbiy va ekstremal turizm kabi yo'nalishlarni rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda. Ushbu tashkilotlar xizmatlar sifatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash, mutaxassislar malakasini ko'tarish, yangi marshrutlar ishlab chiqish va xalqaro xavfsizlik standartlariga rioya qilishga xizmat qiladi. Davlat va xususiy sektor bilan hamkorlikda turizmni rivojlantirish, ichki va tashqi turistlarni jalb qilish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan ishlar olib borilmoqda.

Turizm sohasidagi hamkorlikning asosiy jihatlari: Hamkorlik turizm sohasida jozibali investitsiya muhitini yaratish, mehmonxona sohasini soliq imtiyozlari va davlat yordami bilan rivojlantirish, xalqaro konsalting kompaniyalari orqali xizmat sifatini oshirish, taniqli turizm brendlari bilan mamlakatni tanitish, xalqaro tadbirlar yordamida biznes turizmni rivojlantirish, xorijiy ta'lim muassasalari bilan malakali kadrlar tayyorlash va aviareyslar tarmog'ini kengaytirib transport imkoniyatlarini yaxshilash kabi muhim jihatlarni qamrab oladi, bu esa xususiy sektorning rivojlanishi, infratuzilmaning takomillashuvi va turistlar sonining ko'payishiga xizmat qiladi.

Tashqi investitsiyalar va hamkorlarni jalb qilish Turizm sohasidagi hamkorlik jozibali investitsiya muhitini yaratish, mehmonxona sohasini soliq imtiyozlari va davlat yordami bilan rivojlantirish, xalqaro konsalting kompaniyalari orqali xizmat sifatini oshirish, taniqli turizm brendlari bilan hamkorlikni kengaytirish, xalqaro tadbirlar yordamida biznes turizmni rivojlantirish, xorijiy ta'lim muassasalari bilan kadrlar tayyorlash va aviareyslar tarmog'ini kengaytirish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu xususiy sektorning o'sishiga, zamonaviy turistik obyektlarning barpo etilishiga, infratuzilmaning yaxshilanishiga va turistlar sonining ortishiga yordam beradi.

Muammolar va yechimi bo'yicha takliflar. Turistik mahsulotlarning chegaralangan turdoshligi – madaniy, tabiiy va gastronomik turlar kabi yangi yo'nalishlarni rivojlantirish lozim.

Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo kabi turistik hududlari infratuzilmasining yomonligi sayyohlarning noroziligiga sabab bo'lmoqda.

Turizmning ahamiyatini yetarlicha anglab yetmasligi va infratuzilmani rivojlantirishga jiddiy yondashmasligi ortidan ko'plab viloyatlarda muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Trekking (piyoda sayohat) yo'nalishlari uchun ruxsatnomalarni olish jarayoni juda uzoq — 2–3 oyga cho'zilishi tur firmalarning qo'shimcha sarsongarchiliklarini keltirib chiqarmoqda.

Turizm qishloqlari so'nggi yillarda tashkil etila boshlagan bo'lsada, Toshkent, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida arzigulik darajada emas.

Chegara punktlarida yurtimiz turizm salohiyatini namoyon etuvchi maxsus turizm burchaklari tashkil etilmaganligi, bevosita tashrif buyuruvchi sayyohlarda qiziqishning ortishiga olib kelmayapti.

Ba'zi hududlarda hunarmandchilik va gastronomik turizm markazlari tashkil etilmagan.

Ekologik muammolar – zamonaviy chiqindilarni boshqarish tizimlarini joriy etish, ekologiya qonunchiligini mustahkamlash va xabardorlikni oshirish muhim.

Infratuzilmaning yetishmasligi – transport, kommunal xizmatlar va zamonaviy texnologiyalarga sarmoyani ko'paytirish talab qilinadi.

Malakali kadrlar yetishmasligi – ta'lim dasturlarini yangilash va xalqaro standartlarni joriy etish zarur.

Kasblar klassifikatorining eskirib qolishi – kasb-hunarlarning zamonaviy talablariga mos keladigan kvalifikatsiya tizimini yaratish kerak.

Bu muammolarni hal etish O'zbekistonning turistik bozoridagi raqobatdoshligini oshiradi. Davlat, xususiy sektor va xalqaro hamkorlarning birgalikdagi sa'y-harakati muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Xulosa sifatida zamonaviy iqtisodiy va texnologik talablarga mos, ustuvor kasblar.

1. Ekskursovod
2. Gid (Gid-tarjimon)
3. Yo'riqchi-yo'l boshlovchi
4. Bellboy (bellmen)
5. Konsyerj
6. Xonalar fondi xizmatchisi;
7. Bron qilish bo'yicha mutaxassis
8. Mehmonxona administrator
9. Mehmonxonada tungi auditor
10. Ma'muriy-xo'jalik xizmati menejeri
11. Qabul qilish va joylashtirish xizmati menejeri

12. Mehmonxona direktori o'rinbosari
 13. Mehmonxona direktori
 14. Turizm-axborot markazi maslahatchisi (konsultanti)
 15. Turagent/Turizm agenti
 16. Turoperator
 17. Turizm bo'yicha menejer
 18. Turistik tashkilot direktori
 19. Ranner
 20. Ofitsiant
 21. Ovqatlanish korxonasi xostesi
 22. Room-service bo'limi ofitsianti
 23. Barmen
 24. Barista
 25. Bufetchi
 26. Somele
 27. Qandolatchi
 28. Novvoy
 29. Bosh oshpaz
 30. Su-shef
 31. Metrdotel
 32. Keytering va xizmat ko'rsatish menejeri
 33. Oziq-ovqat va ichimliklar menejeri (Food&Beverage)
 34. Umumiy ovqatlanish korxonasi direktori (mudiri)
- Iqtisodiy va texnologik omillar ta'sirida bosqichma-bosqich qisqarib borayotgan

kasblar

1. Turistik guruh rahbari
2. Gid-sayohatchi
3. Ichki turizm ekskursovodi
4. Turizm bo'yicha inspektor (moliyaviy masalalar)
5. Gid
6. Kuzatib boruvchi gid
7. Turizm bo'yicha yo'riqchi-uslubchi
8. Turizmni faol tashkilotchisi
9. Mehmonxona navbatchisi
10. Mehmonxona qavati navbatchisi
11. Mehmonxona xo'jaligi mutaxassisi
12. Porte
13. Otelar
14. Mehmonxona mudiri
15. Mehmonxona majmuasi (xo'jaligi) mudiri
16. Mehmonxona xo'jaligi zal, uchastkasi mudiri
17. Mehmonxona korpusi mudiri

18. Mehmonxona xo'jaligi uchastkasi mudiri
19. Mehmonxona qavati mudiri
20. Mehmonxona direktori (mudiri)
21. Turistik xizmatlarni tashkil etish bo'yicha mutaxassis
22. Turizm industriasining iqtisodiyot sohasi bo'yicha mutaxassis
23. Turizm bo'yicha mutaxassis
24. Turizm bo'yicha inspektor (sayohat tashkilotchisi)

Texnologik taraqqiyot va innovatsion o'zgarishlar asosida vujudga kelishi prognoz qilinayotgan yangi kasblar

1. Ishlab chiqarish turizmi bo'yicha mutaxassis
2. Ishlab chiqarish turizmi bo'yicha menejer
3. Tiflokommentator.
4. Brend menejeri
5. Aqlli turistik tizimlar ishlab chiquvchisi.

3. Tarmoqqa tegishli kasblar tahlili

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)ga muvofiq Turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari sohalariga tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltirilmoqda:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
Turizm faoliyati		
1.	14390035	Turizm bo'yicha menejer
2.	14390035	Turizm bo'yicha menejer (faoliyat turlari bo'yicha)
3.	24311009	Turizm marketologi
4.	34120006	Tiflokommentator
5.	34230003	Tog' chang'isi yo'riqchisi
6.	42210008	Turanimator
7.	42210009	Turizm bo'yicha agent
8.	42210010	Turizm logistikasi bo'yicha mutaxassis
9.	42210012	Turizm axborot markazi xodimi
10.	43233017	Osma dor yo'li mutaxassisi
11.	51130001	Gid (turlari bo'yicha)
12.	51130001	Ekskursiya yetakchisi
13.	51130003	Gid-tarjimon
14.	51130005	Yo'riqchi-yo'l boshlovchi
15.	14110	Direktor (ekskursiya byurosi mudiri)
16.	11200	Turistik tashkilot direktori
17.	14390	Turoperator(faoliyat turlari bo'yicha)
18.	26210	Ekspozitsiya ekskursovodi
19.	33399	Turizm bo'yicha mutaxassis (faoliyat turlari bo'yicha)

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
Mehmonxona faoliyati		
1.	11200034	Sanatoriya direktori
2.	14110004	Mehmon uyi egasi (rahbari)
3.	14110005	Mehmonxona kompleksi direktori
4.	14110005	Mehmonxona majmuasi direktori
5.	14110005	Mehmonxona direktori o'rinbosari
6.	14110006	Mehmonxona muassasasi ijrochi direktori
7.	14110009	Pansionat direktori
8.	14110012	Dam olish zonasi direktori (mudiri)
9.	14110007	Mehmonxonalarda bo'lim boshlig'i
10.	33410012	Xonalar fondi menejeri
11.	33410012	Ma'muriy xizmat menejeri
12.	33430002	Batler (majordom, household-menejer)
13.	42210005	Bron qilish bo'yicha mutaxassis
14.	42241002	Mehmonxona administratori
15.	42241004	Mehmonxonada tungi auditor
16.	51510007	Xonalar fondi xizmatchisi
17.	51530002	Konsyerj
18.	91121002	Mehmonxonada tozalovchi
19.	96210001	Bagaj tashuvchisi
20.	96210002	Bellboy (bellmen)
21.	96210008	Shveysar
22.	96290007	Garderoibchi
23.	33410	Qabul qilish va joylashtirish xizmati menejeri
24.	42241	Katta administrator
25.	42210	Mehmonlar bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis
26.	51510	Xonalar fondi katta xizmatchisi (supervayzeri)
Umumiy ovqatlanish faoliyati		
1.	14120002	Kafe direktori
2.	14120005	Restoran boshlig'i (direktori, rahbari, mudiri)
3.	14120005	Restoran direktorining o'rinbosari
4.	14120007	Bo'lim boshlig'i (umumiy ovqatlanish korxonasi va mehmonxonalarda)
5.	14120008	Umumiy ovqatlanish korxonalarida boshlig'i
6.	14120008	Umumiy ovqatlanish tashkiloti direktori (boshlig'i, rahbari)
7.	14120010	Zal (restoran, kafe va boshqalar) boshlig'i
8.	34340001	Barmenlar (bufetchilar, novvoy, Ofitsiantlar) brigadiri
9.	34340002	Bosh qandolatchi
10.	34340003	Bosh oshpaz
11.	34340004	Su-shef
12.	51200006	Oshpaz-brigadir
13.	51310001	Barista
14.	51310002	Barmen

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
15.	51310010	Somelye
16.	51320001	Bufetchi
17.	75122013	Qandolatchilar brigadiri
18.	51200004	Milliy va Yevropa taomlari oshpazi
19.	51200005	Oshpaz
20.	51200008	Qandolatchi-oshpaz
21.	51310006	Ofitsiant
22.	51310008	Ovqatlanish korxonasi titesteri
23.	51310009	Ovqatlanish korxonasi xostesti
24.	51320003	Ichimliklarni tayyorlovchi
25.	75121004	Novvoy
26.	75121006	Usta-novvoy
27.	75122012	Qandolatchi
28.	94120002	Idish yuvuvchi
29.	96210007	Ranner
30.	14120009	Oziq-ovqat va xizmat ko'rsatish menejeri
31.	14120009	Oziq-ovqat va ichimliklar menejeri (Food&Beverage)
32.	14120	Keytering va xizmat ko'rsatish menejeri.
33.	33410	Zal/bar menejeri
34.	33410	Metrdotel (zal adminstratori)
35.	34320	Karving san'ati ustasi

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot

T/r	Kasbiy standartlarning soni	Qamrab olinadigan kasb (lavozim) lar soni	Ishlab chiqiladigan yil
1	10	41	2025-yil, dekabr
2	15	59	2026-yil, dekabr

6.Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy guruhlarga oid faoliyat turi va kasb (lavozim)lar kodi va nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
Turizm faoliyati					
1	1	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha elementar va boshlang'ich umumiy bilimlar	Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O'zganing bevosita nazorati va kuzatuvi ostida ishlash	
2	2	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha umumiy amaliy bilimlar	Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo'riqnoma bo'yicha harakat qilish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish	
3	3	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha umumiy amaliy va kasbiy bilimlar	Belgilangan vazifalarni bajarish va muammolarni hal qilish uchun asosiy usullar, vositalar, materiallar va ma'lumotlarni saralash va foydalanish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik; Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish	
4	4	Kasbiy faoliyatida zamonaviy professional (nazariy va amaliy) bilimlar; Turistik infratuzilma, yo'nalishlar va marshrutlarning xususiyatlari;	O'quv va mehnat holatini, uning mumkin bo'lgan o'zgarishlarini va harakatlarini mustaqil tahlil qilishni talab qiladigan prognoz qilinadigan sharoitlarda keng	Mustaqil ijro faoliyati. Muayyan ish sohasidagi jamoaviy faoliyat va shahsan faoliyat natijasi uchun javobgarlik	79.90.0 Joy bron qilish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog'liq xizmatlar.

		Turizm va mehmondo'stlik sohalariga oid asosiy tushunchalar; Amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, qonunchilik asoslari va boshqaruv (menejment) tamoyillari; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi; Mijozlar bilan samarali muloqot o'rnatish va sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatlari; Ish jarayonida xavfsizlik texnikasi, hayot faoliyati xavfsizligi, mehnatni muhofazasi, sanitariya-gigiyena, yong'in va sanoat xavfsizligi, mehnat intizomi asoslari; Kasbiy atamalar; Dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish yo'llari; Atrof-muhit va yashil iqtisodiyot tamoyillari.	doiradagi tipik kasbiy vazifalarni hal qilish; Axborot texnologiyalaridan foydalana olishi; Hujjatlar bilan ishlash tizimini yuritish; Atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatda bo'lishi; Yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotda qo'llay olishi; Barcha kasbiy atamalarni qo'llay olishi.		51130001 Ekskursiya yetakchisi 51130005 Yo'riqchi-yo'l boshlovchi 2621 Ekspozitsiya ekskursovodi 79.11.0 Turistik agentliklar faoliyati 42210009 Turizm bo'yicha agent 93.29.0 Dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish bo'yicha boshqa faoliyat 43233017 Osma dor yo'li mutaxassisi 63.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat 42210008 Turanimator 42210011 Turizm-axborot markazi operatori 42210012 Turizm-axborot markazi xodimi
5	5	Kasbiy sohada keng qamrovli nazariy va amaliy bilimlar; Turistik mahsulotlarni ilgari surish va amalga oshirish asoslari; Infrastruktura, turistik yo'nalishlar va marshrutlarning xususiyatlari;	Turistik mahsulotlarni shakllantira olish ularni ilgari surish va amalga oshirish jarayonlarini tashkil eta olish; Infrastruktura, turistik yo'nalishlar va marshrutlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda ekskursiya va sayohatlarni rejalashtira olish;	Mustaqil faoliyat. Xodimlarni boshqarish; Bo'linmalar ichida vazifalarni belgilash; Boshqaruv menejment tamoyillarini egallagan, shuningdek, turizm sohasidagi huquq va	79.12.0 Turoperatorlar faoliyati 51130004 Turistik guruh rahbari 1439 Turoperator (faoliyat turlari bo'yicha) 3339 Turizm bo'yicha mutaxassis (faoliyat turlari bo'yicha)

		Mutaxassis turizm va mehmondo'stlik sohasining o'ziga xos jihatlari; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasini o'zlashtirish; Hujjat yuritish jarayonlarini boshqarish va axborot texnologiyalaridan foydalanish; Xavfsizlik texnikasi, hayot faoliyati xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, sanitariya va gigiyena, yong'in va sanoat xavfsizligi, mehnat intizomi asoslari; kasbiy atamalarni to'g'ri qo'llash va dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish tartibi, Yashil iqtisodiyot tamoyillari.	Boshqaruv (menejment) tamoyillariga asoslanib jamoa faoliyatini tashkil qila olish hamda turizm sohasidagi huquqiy me'yorlarga amal qilish; Turizm va mehmondo'stlik sohasining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, mehmonlarga sifatli xizmat ko'rsata olish; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi bo'yicha bilimlari asosida mijozlar bilan samarali muloqot qila olish; Tizimni yurita olish hamda axborot texnologiyalaridan professional darajada foydalana olish; Ish jarayonida xavfsizlik texnikasi, hayot faoliyati xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena va sanoat xavfsizligi talablariga qat'iy rioya qilish; Kasbiy atamalardan to'g'ri foydalana olish va zarur hollarda dastlabki tibbiy yordam ko'rsata olish; Yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy eta olish va atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatda bo'lish;	qonunchilik asoslaridan xabardor bo'lish; Xodimlar o'rtasida vakolatlarni taqsimlash; Maqsadlarga erishishni nazorat qilish; Shaxsiy ish va bo'linmaning ma'lum bir ish sohasidagi ish natijasi uchun javobgarlik.	79.90.0 Joy bron qilish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog'liq xizmatlar. 51130001 Gid (turlari bo'yicha) 34230003 Tog' chang'isi yo'riqchisi 63.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat 42210010 Turizm logistikasi bo'yicha mutaxassis 73.20.0 Bozor konyunk - turasini tadqiq qilish va jamoatchi fikrini o'rganish. 52.29.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan, tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari 34120006 Tiflokommentator
--	--	---	---	--	---

6	6	Turizm sanoatidagi nazariyalar va asoslarni tanqidiy tahlil qilish usullari; Infrastruktura va turistik yo'nalishlar, marshrutlarining xususiyatlari; Turizm sohasidagi qonunchilik asoslari; Turizm va mehmondo'stlik talablari; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi asoslari; Xavfsizlik texnikasi va hayot faoliyati xavfsizligi talablari; Xodimlarni boshqarish asoslari; Hujjatlar bilan ishlash tartibi; Mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, sanitariya va gigiyena, yong'in va sanoat xavfsizligi, mehnat intizomi asoslari; Kasbiy atamalar; Dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish tartibi; Vaqtni boshqarish usullari; Yashil iqtisodiyot.	Nazariy va amaliy bilimlardan foydalangan holda kasbiy muammolarni hal qilishning turli xil variantlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish va targ'ib qilish.	Xodimlarni boshqarish. Tashkilotning tarkibiy bo'linmasi ishining natijasi uchun javobgarlik	79.12.0 Turoperatorlar faoliyati 124311009 Turizm marketologi 14390035 Turizm bo'yicha menejer (faoliyat turlari bo'yicha) 14110 Direktor (ekskursiya byurosi mudiri) Sanoat turizmi menejeri 79.90.0 Joy bron qilish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog'liq xizmatlar. 51130003 Gid-tarjimon
7	7	Asosiy faoliyatni amalga oshirish va turizm sohasidagi murakkab vazifalarni strategik va tizimli tarzda boshqarish tamoyillari; Hujjatlar bilan ishlash tartibi va boshqaruv hujjatlarini institut darajasida yuritish qoidalari;	Asosiy faoliyatni amalga oshirish va turizm sohasidagi murakkab vazifalarni tizimli tarzda hal etish; Hujjatlar bilan ishlash va boshqaruv hujjatlarini yuritish; Xizmat ko'rsatish etikasi va mehmon psixologiyasini hisobga	Tashkilot bo'limlari va o'z zimmasidagi ish jarayonlari natijalari uchun javobgarlikni olish; O'z faoliyatini belgilangan me'yorlar va standartlarga muvofiq	

		Xizmat ko'rsatish etikasi va mehmon psixologiyasini hisobga olgan strategik boshqaruv usullari; Vaqtni boshqarish usullari va ish jarayonlarini samarali tashkil etish prinsiplari; Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillari, ularni mehmonxona faoliyatiga integratsiya qilish usullari; Mehmonxona boshqaruvi va servis strategiyasini institut darajasida ishlab chiqish va amalga oshirish prinsiplari; Operatsion jarayonlarni kompleks boshqarish usullari va xizmat ko'rsatish standartlarini tizimli joriy etish qoidalari; Mehmonxona bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish me'zonlari; PMS va boshqa boshqaruv axborot tizimlarining ishlash tartiblari va strategik qo'llanilish prinsiplari; Xizmat sifati monitoringi, audit va tahlil usullarini strategik tarzda tashkil etish me'zonlari; Shikoyatlar va inqirozli vaziyatlarni strategik boshqarish tartiblari hamda xizmat sifatini	olgan ish faoliyatini boshqarish; Vaqtni samarali boshqarish va ish jarayonlarini tashkil etish; Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan faoliyatni amalga oshirish; Mehmonxona boshqaruvi va servis strategiyasini joriy etish; Operatsion jarayonlarni boshqarish va xizmat ko'rsatish standartlarini qo'llash; Mehmonxona bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish; PMS va boshqa boshqaruv axborot tizimlaridan foydalanish; Xizmat sifati monitoringi, audit va tahlilni tashkil etish; Shikoyatlar va inqirozli vaziyatlarni boshqarish hamda xizmat sifatini tiklash choralari belgilash; Xodimlar faoliyatini boshqarish va ularni motivatsiya berish; Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish, moliyaviy intizomni ta'minlash; Boshqaruv hisobotlarini tayyorlash va natijalarni baholash; Mehnat muhofazasi, sanitariya-gigiyena va yong'in xavfsizligi talablarini nazorat qilish;	mustaqil tarzda tashkil etish; Xizmat ko'rsatish jarayonida shikoyatlar va muammoli vaziyatlarni operativ hal qilish uchun qarorlar qabul qilish; Xodimlar faoliyatini belgilangan qoidalar asosida boshqarish va ularning mehnat samaradorligini ta'minlash; Bo'limlar ishini muvofiqlashtirish va xizmat sifatini yaxshilash bo'yicha takliflar berish va amalga oshirish imkoniyati; Hujjatlar va hisobotlarni belgilangan tartibda yuritish, nazorat qilish va hisobdorlikni ta'minlash; Byudjet va xarajatlarni belgilangan qoidalarga muvofiq nazorat qilish va moliyaviy intizomni ta'minlash; Mehnat muhofazasi, sanitariya-gigiyena va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini nazorat qilish;	
--	--	---	--	--	--

		tiklash choralarini belgilash qoidalari; Xodimlar faoliyatini institut darajasida boshqarish, ularni motivatsiya qilish va kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyalari; Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish me'zonlari hamda moliyaviy intizom tamoyillari; Boshqaruv hisobotlarini tayyorlash va natijalarni tizimli baholash prinsiplari; Mehnat muhofazasi, sanitariya-gigiyena va yong'in xavfsizligi bo'yicha me'yoriy talablar va ularni strategik nazorat qilish tartiblari; Faoliyat natijalarining samaradorligi va sifatini ta'minlash me'zonlari va strategik tamoyillari.	Faoliyat natijalarining samaradorligi va sifatini ta'minlash.	Operatsion jarayonlarda yuzaga keladigan muammolarni belgilangan strategiya va standartlar doirasida hal qilish; O'z bo'limi faoliyati natijalarining samaradorligi va xizmat sifatiga shaxsiy javobgarlikni olish.	
8	8	Murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg'or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar	Yangi bilim va yechimlarga olib keladigan loyihalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat natijalarini prognoz qilish, kasbiy va ijtimoiy sohada keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish, murakkab sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot, ishlanmalar va innovatsiyalar	O'zining va ilmiy jamoaning tadqiqot natijalari, shuningdek, ularning sanoatdagi mamlakat va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy samarasi uchun mas'uliyati; Yirik institutsional tuzilmalar darajasida qarorlar qabul qilish va	

			sohasidagi yangi muammolarni aniqlash va yechimlarini topish uchun zarur bo'lgan eng ilg'or va maxsus ko'nikmalar	strategiyani belgilash, murakkab ijtimoiy, sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, yangi va murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish, jamiyatning texnik, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun strategik qarorlar qabul qilish	
--	--	--	---	---	--

Malaka darajasi		Bilim	Koʻnikma (mahorat)	Masʼuliyat va mustaqillik	Kasbiy guruhlarga oid faoliyat turi va kasb (lavozim)lar kodi va nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
Mehmonxona faoliyati					
1	1	Ish davri boʻyicha asosiy umumiy bilimlar va tegishli harakatlarni amalga oshirish; Xizmat koʻrsatish etikasi va psixologiyasi; Xavfsizlik texnikasi va hayot faoliyati.	Maʼlum va oʻzgarmas vaziyatda elementar vazifalarini bajarish; Oʻzini oʻzi baholash va oʻzini oʻzi boshqarish, koʻnikmalarini namoyish etish.	Yoʻnaltirilgan harakatlar, mehnat natijasi uchun shahsan javobgarlik.	55.10.0 Mehmonxonalar va shunga oʻxshash yashash joylari 55.30.0 Turistik oromgohlar, dam olish va koʻngilochar parklar va shaharchalar 55.90.0 Yashash uchun boshqa joylar xizmatlari 96290007 Garderobchi
2	2	Mehnat predmeti, oddiy tipik vazifalarni bajarishda natijalarga erishish vositalari va usullari haqidagi asosiy bilimlar; Turizm va mehmondoʻstlik; Xizmat koʻrsatish etikasi va psixologiyasi; Xavfsizlik texnikasi va hayot faoliyati xavfsizligi.	Bir turdagi standart va oddiy topshiriqlarni bajarish; Koʻrsatmalarga muvofiq harakat qilish.	Muayyan darajada mustaqillikka ega boʻlgan rahbarlik faoliyati; Mehnat natijasi uchun shaxsan javobgarlik.	55.10.0 Mehmonxonalar va shunga oʻxshash yashash joylari 55.30.0 Turistik oromgohlar, dam olish va koʻngilochar parklar va shaharchalar 55.90.0 Yashash uchun boshqa joylar xizmatlari 91121002 Mehmonxonada tozalovchi
3	3	Kasbiy faoliyatda asosiy, umumiy taʼlim va amaliyotga yoʻnaltirilgan bilimlar; Turizm va mehmondoʻstlik. Xizmat koʻrsatish etikasi va psixologiyasi;	Standart sharoitlarda tipik kasbiy vazifalarni hal qilish; Ish tajribasi va kasbiy tayyorgarlik jarayonida olingan bilimlarga asoslangan optimal harakatlarni tanlash.	Muayyan darajada mustaqillikka ega boʻlgan rahbar faoliyati; Topshiriqni bajarish uchun shahsan javobgarlik.	55.10.0 Mehmonxonalar va shunga oʻxshash yashash joylari 55.30.0 Turistik oromgohlar, dam olish va koʻngilochar parklar va shaharchalar

		Xavfsizlik texnikasi va hayot faoliyati. Mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, sanitariya va gigiyena, yong'in va sanoat xavfsizligi, mehnat intizomi asoslari; Dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish tartibi.			55.90.0 Yashash uchun boshqa joylar xizmatlari 96210008 Shveysar 51530002 Konsyerj 51510007 Xonalar fondi xizmatchisi
4	4	Professional (nazariy va amaliy) bilim va tajriba; Infrastruktura va turistik yo'nalishlar, marshrutlarining xususiyatlari; Turizm sohasidagi qonunchilik asoslari; Turizm va mehmondo'stlik talablari; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi; Xavfsizlik texnikasi va hayot faoliyati xavfsizligi asoslari; Hujjatlar bilan ishlash tartibi; Mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, sanitariya va gigiyena, yong'in va sanoat xavfsizligi, mehnat intizomi asoslari; Kasbiy atamalar; Dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish tartibi; Yashil iqtisodiyot.	O'quv va mehnat holatini, uning mumkin bo'lgan o'zgarishlarini va harakatlarini mustaqil tahlil qilishni talab qiladigan prognoz qilinadigan sharoitlarda keng doiradagi tipik kasbiy vazifalarni hal qilish; Xizmat ko'rsatish jarayonlarini amaliy bajarish; Mijozlar bilan professional muloqot qilish; Ish jarayonida axborot tizimlaridan foydalanish; Jamoalar bilan hamkorlikda ishlash; Muammoli vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish; sanitariya hamda xavfsizlik talablariga rioya etish va ish hujjatlarini belgilangan tartibda yuritish.	Mustaqil ijro faoliyati, Muayyan ish sohasidagi jamoaviy faoliyat va shaxsan faoliyat natijasi uchun javobgarlik.	55.10.0 Mehmonxonalar va shunga o'xshash yashash joylari 55.20.0 Dam olish kunlarida va boshqa qisqa yashash muddatlarida turar joy bilan ta'minlash 55.30.0 Turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar 55.90.0 Yashash uchun boshqa joylar xizmatlari 42241002 Mehmonxona administratori 42241004 Mehmonxona tungi auditori 42210005 Bron qilish bo'yicha mutaxassis Mehmonlar bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis 51510004 Xonalar fondi katta xizmatchisi (supervayzer)

5	5	Mehmonlarga xizmat ko'rsatishning ilg'or standartlari; Servis etikasi; Bron va joylashtirish jarayonlarini boshqarish tartiblari; Mehmonxona bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish tamoyillari; PMS hamda boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanish qoidalari; Hujjatlar bilan ishlash va hisobot tayyorlash tartiblari; Shikoyat va muammoli vaziyatlarni boshqarish usullari; turizm va mehmondo'stlik sohasining asosiy tushunchalari hamda kasbiy atamalar, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena va yong'in xavfsizligi talablari, xavfsizlik texnikasi hamda zarur hollarda dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish tartibi.	Mehmonlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini ilg'or standartlar asosida tashkil etish va nazorat qilish; Bron hamda joylashtirish jarayonlarini boshqarish; PMS va boshqa axborot tizimlarida ishlash, bo'limlar ishini muvofiqlashtirish va jamoa bilan samarali hamkorlik qilish; Xizmat sifati ko'rsatkichlarini baholash va yaxshilash choralarini ko'rish; Mehmon murojaatlari va shikoyatlarini professional tarzda ko'rib chiqish hamda muammoli vaziyatlarni hal etish; Hujjatlar va hisobotlarni belgilangan tartibda yuritish; sanitariya-gigiyena, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya etish, xavfsizlikka oid vaziyatlarda tezkor harakat qilish hamda zarur hollarda dastlabki yordam ko'rsatish.	Mustaqil faoliyat. Xodimlarni boshqarish; Bo'linmalar ichida vazifalarni belgilash; Xodimlar o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, Maqsadlarga erishishni nazorat qilish, Shaxsiy ish va bo'linmaning ma'lum bir ish sohasidagi ish natijasi uchun javobgarlik.	55.10.0 Mehmonxonalar va shunga o'xshash yashash joylari 55.30.0 Turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar 55.90.0 Yashash uchun boshqa joylar xizmatlari Katta administrator 33410012 Xonalar fondi menejeri 33410012 Ma'muriy xizmat menejeri 33430002 Batler (majordom, household-menejer)
6	6	Turizm sanoatidagi nazariyalar va asoslarni tanqidiy tahlil qilish uchun ilg'or bilim; Huquq va qonunchilik asoslari; Ovqatlanish va gastronomiya qoidalari; Tovarshunoslik talablari;	Nazariy va amaliy bilimlardan foydalangan holda kasbiy muammolarni hal qilishning turli xil variantlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish va targ'ib qilish.	Xodimlarni boshqarish, Tashkilotning tarkibiy bo'linmasi ishining natijasi uchun javobgarlik.	55.10.0 Mehmonxonalar va shunga o'xshash yashash joylari 55.20.0 Dam olish kunlarida va boshqa qisqa yashash muddatlarida turar joy bilan ta'minlash

		Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi; Xavfsizlik texnikasi va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalari; Axborot texnologiyalari; Ommaviy ovqatlanish korxonasini boshqarish asoslari; Xodimlarni boshqarish asoslari; Hujjatlar bilan ishlash tartibi; Mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, sanitariya va gigiyena, yong'in va sanoat xavfsizligi, mehnat intizomi asoslari; Dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish; Vaqtni boshqarish usullari; Yashil iqtisodiyot.			55.30.0 Turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar 55.90.0 Yashash uchun boshqa joylar xizmatlari Qabul qilish va joylashtirish xizmati menejeri 14110004 Mehmon uyi egasi (rahbari) 14110005 Mehmonxona (mehmonxona muassasasi) direktori 14110005 Mehmonxona kompleksi direktori 14110006 Mehmonxona muassasasi ijrochi direktori 14110005 Mehmonxona direktori o'rinbosari 14110012 Mehmonxonalarda bo'lim boshlig'i (xizmat rahbari) 14110012 Dam olish zonasi direktori (mudiri) 11200034 Sanatoriy direktori 14110009 Pansionat direktori
7	7	Asosiy faoliyatni amalga oshirish, faoliyat turi sohasidagi muammolarni tizimli hal qilish uchun yuqori ixtisoslashtirilgan bilim; Hujjatlar bilan ishlash tartibi; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi;	Kasbiy faoliyat maqsadini mustaqil ravishda aniqlash va ularga erishishning adekvat usullari va vositalarini tanlash; Yangi bilimlarni olish uchun ilmiy, innovatsion faoliyatni amalga oshirish;	Yirik ishlab chiqarish va ilmiy mehnat jamoalariga rahbarlik qilish; Strategiyani belgilash, institutsional darajada jarayonlarni boshqarish; Tashkilot	55.10.0 Mehmonxonalar va shunga o'xshash yashash joylari

		Vaqtning boshqarish usullari; Yashil iqtisodiyot; Mehmonxona boshqaruvi va servis strategiyasi; Mehmonlarga xizmat ko'rsatishning ilg'or va xalqaro standartlari, operatsion jarayonlarni kompleks boshqarish tamoyillari; Mehmonxona bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish usullari; PMS va boshqaruv axborot tizimlarining ishlash prinsiplari; Xizmat sifati monitoringi va audit usullari; Shikoyat hamda inqirozli vaziyatlarni boshqarish yondashuvlari; Xodimlarni boshqarish va kompetensiyalarni rivojlantirish asoslari; Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish tamoyillari; Hujjat yuritish va boshqaruv hisobotlarini tayyorlash tartiblari; Mehnat muhofazasi, sanitariya-gigiyena va yong'in xavfsizligi bo'yicha me'yoriy talablar.	Mehmonxona xizmatlarini strategik rejalashtirish va boshqarish; Xizmat ko'rsatish standartlarini ishlab chiqish va joriy etish; Bo'limlar faoliyatini kompleks muvofiqlashtirish hamda samaradorlikni oshirish; PMS va boshqa boshqaruv axborot tizimlari orqali operatsion jarayonlarni nazorat qilish; Xizmat sifati bo'yicha monitoring, audit va tahlilni tashkil etish; Shikoyatlar va inqirozli vaziyatlarni boshqarish hamda xizmat sifatini tiklash bo'yicha qarorlar qabul qilish; Xodimlar faoliyatini boshqarish, motivatsiya va malaka oshirish jarayonlarini yo'lga qo'yish; Byudjet va xarajatlarni rejalashtirish hamda moliyaviy intizomni ta'minlash Hujjatlar va hisobotlarni yuritish; Sanitariya-gigiyena, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablarini ta'minlash.	ishining natijasi uchun javobgarlik. bo'limlar ishini muvofiqlashtirish va xizmat sifati natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish, Xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etish va takomillashtirish; Resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, xodimlar faoliyatini boshqarish va ularning malakasini rivojlantirish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish; Muammoli va inqirozli vaziyatlarda tezkor boshqaruv choralari belgilash, xavfsizlik hamda me'yoriy talablar bajarilishini nazorat qilish; Rahbariyat darajasida hujjatlar va hisobotlarni yuritish hamda natijalar bo'yicha hisobdorlikni ta'minlash.	
--	--	---	---	--	--

8	8	Faoliyat sohasini strategik rivojlantirish, tizimli muammolarni kompleks hal qilish va qarorlar qabul qilish metodologiyasi; Tashkilot va tarmoq darajasida siyosat, strategiya va rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish tamoyillari; Xalqaro standartlar va ilg'or amaliyotlar asosida xizmatlar sifatini boshqarish tizimlari (quality management systems); Raqamli transformatsiya, innovatsiyalarni joriy etish va boshqaruvda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish strategiyalari; Katta hajmdagi operatsion jarayonlarni kompleks boshqarish va optimallashtirish metodlari; Tashkilot bo'limlari faoliyatini strategik muvofiqlashtirish va integratsiyalash yondashuvlari; Inqirozli vaziyatlar, risklar va o'zgarishlarni boshqarish (crisis, risk and change management) nazariyalari; Inson resurslarini strategik boshqarish, liderlik, tashkilot madaniyatini rivojlantirish va kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari;	Mehmonxona faoliyatini uzoq muddatli rejalashtirish va rivojlantirish; Bo'limlararo ishlarni kompleks muvofiqlashtirish; Yangi xizmatlar va mahsulotlarni strategik loyihalash va joriy etish; Qarorlar qabul qilishda risklarni baholash va minimallashtirish; Ilmiy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish; Raqamli texnologiyalar va ilg'or amaliyotlarni joriy etish; Innovatsion loyihalarni boshqarish va baholash; Xizmat ko'rsatish standartlarini ishlab chiqish va joriy etish; PMS va boshqa boshqaruv tizimlari orqali operatsion jarayonlarni nazorat qilish; Sifat monitoringi, audit va tahlilni strategik tarzda tashkil etish; Inqirozli vaziyatlarda xizmat sifatini tiklash bo'yicha qarorlar qabul qilish; Xodimlarni motivatsiya qilish va yetakchilik ko'nikmalarini shakllantirish; Kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish; Jamoa ishini muvofiqlashtirish va bo'limlararo integratsiya qilish;	Yirik ishlab chiqarish, ilmiy va turizm sohasidagi jamoalarga strategik rahbarlik qilish; Tashkilot va uning bo'limlari faoliyatini kompleks tizimda boshqarish; Uzoq muddatli strategiyalarni belgilash va institutsional jarayonlarni loyihalash; Tashkilot ishining natijasi uchun yakuniy javobgarlikni o'z zimmasiga olish; Xizmat ko'rsatish standartlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va doimiy integratsiya qilish; Resurslardan samarali va barqaror foydalanishni ta'minlash; Xodimlar faoliyatini strategik boshqarish, motivatsiya va malaka oshirish jarayonlarini kompleks nazorat qilish;	
---	---	--	--	--	--

		Moliyaviy boshqaruv, byudjetlashtirish, investitsiya tahlili va xarajatlarni strategik nazorat qilish usullari ; Xizmat ko'rsatish etikasi, mijozga yo'naltirilganlik va servis madaniyatini rivojlantirish konsepsiyalari; Barqaror rivojlanish, "yashil iqtisodiyot" va ekologik boshqaruv tamoyillari; Milliy va xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar, standartlar va tartibga solish mexanizmlari; Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi, sanitariya-gigiyena va yong'in xavfsizligini strategik darajada boshqarish asoslari; Analitik fikrlash, ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish (data-driven decision making) metodlari; Tashkilot faoliyatini monitoring qilish, audit va samaradorlikni baholash tizimlari.	Byudjetni strategik rejalashtirish va xarajatlarni optimallashtirish; Moliyaviy intizomni ta'minlash; Resurslarni samarali taqsimlash va nazorat qilish; Hujjatlar va boshqaruv hisobotlarini yuritish; Sanitariya-gigiyena, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligini nazorat qilish; Milliy va xalqaro standartlarga muvofiq operatsion va strategik qarorlar qabul qilish; Ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish va qaror qabul qilishda qo'llash; Sifat, samaradorlik va mijoz qoniqishini baholash uchun indikatorlar ishlab chiqish; Operatsion va strategik qarorlarni qo'llab-quvvatlash uchun analitik xulosalar tayyorlash.	Muammoli va inqirozli vaziyatlarda strategik va tezkor qarorlar qabul qilish, xavfsizlik, sanitariya-gigiyena va me'yoriy talablarning bajarilishini institutsional darajada nazorat qilish; Rahbariyat darajasida hujjatlar va hisobotlarni yuritish, natijalar bo'yicha yakuniy hisobdorlikni ta'minlash va tashkilotning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish uchun tizimli boshqaruv choralarini belgilash.	
--	--	---	---	--	--

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy guruhlarga oid faoliyat turi va kasb (lavozim)lar kodi va nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
Umumiy ovqatlanish faoliyati					
1	1	Ish va sikl mavzusi bo'yicha asosiy umumiy bilimlar tegishli harakatlarni amalga oshirish; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi; Mehnat muxofazasi va hayot faoliyati xavfsizligi asoslari.	Ma'lum va o'zgarmas vaziyatda elementar vazifalarni bajarish; O'zini o'zi kuzatish va o'zini o'zi boshqarish; Ko'nikmalarini namoyish etish.	Yo'naltirilgan harakatlar; Mehnat natijasi uchun shahsan javobgar.	56.29.0 Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari 96210007 Ranner 94120002 Idish yuvuvchi 56.21.0 Buyurtma bo'yicha ovqat yetkazib berish 56.29.0 Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari 96210002 Bellboy (bellmen) 96210001 Bagaj tashuvchisi
2	2	Mehnat predmeti, oddiy tipik vazifalarni bajarishda natijalarga erishish vositalari va usullari haqidagi asosiy bilimlar; Turizm va mehmondo'stlik talablari; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi; Mexnat muxofazasi va hayot faoliyati xavfsizligi.	Bir turdagi standart va oddiy topshiriqlarni yechish; Ko'rsatmalarga muvofiq harakat qilish.	Muayyan darajada mustaqillikka ega bo'lgan rahbar faoliyati; Mehnat natijasi uchun shahsan javobgar.	56.10.0 Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar 56.30.0 Ichimliklar yetkazib berish 51310009 Ovqatlanish korxonasi xostesi 56.10.0 Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar

					56.21.0 Buyurtma bo'yicha ovqat yetkazib berish 56.29.0 Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari 56.30.0 Ichimlik yetkazish 51310006 Ofitsiant
3	3	Kasbiy faoliyatda asosiy, umumiy ta'lim va amaliyotga yo'naltirilgan bilimlar; Turizm va mehmondo'stlik talablari; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi, Mexnat muxofazasi va hayot faoliyati xavfsizligi.	Standart sharoitlarda tipik kasbiy vazifalarni hal qilish; Ish tajribasi va kasbiy tayyorgarlik jarayonida olingan bilimlarga asoslangan optimal harakatlarni tanlash.	Muayyan darajada mustaqilka ega bo'lgan rahbar faoliyati; Topshiriqni bajarish uchun shahsan javobgar.	56.10.0 Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar 56.21.0 Buyurtma bo'yicha ovqat yetkazib berish 56.29.0 Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari 56.30.0 Ichimlik yetkazish 51310002 Barmen 51310001 Barista 51320001 Bufetchi 51320003 Ichimliklar tayyorlovchi 51200005 Oshpaz 51200004 Milliy va Yevropa taomlari oshpazi 51200008 Qandolatchi-oshpaz 75122012 Qandolatchi 75121004 Novvoy 75121006 Usta-novvoy
4	4	Professional (nazariy va amaliy) bilim va tajriba; Turizm sohasidagi qonunchi asoslari;	O'quv va mehnat holatini, uning mumkin bo'lgan o'zgarishlarini va	Mustaqil ijro faoliyati; Muayyan ish sohasidagi jamoaviy faoliyat va	56.10.0 Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari

		Turizm va mehmondo'stlik talablari; Ovqatlanish va gastronomiya usullari; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiya qoidalarlari; Xavfsizlik texnikasi va hayot faoliyati xavfsizligi talablari; Axborot texnologiyalari asoslari; Hujjatlar bilan ishlash tartibi;	harakatlarini mustaqil tahlil qilishni talab qiladigan prognoz qilinadigan sharoitlarda keng doiradagi tipik kasbiy vazifalarni hal qilish.	shahsan faoliyat natijasi uchun javobgarlik.	yetkazish bo'yicha xizmatlar 56.21.0 Buyurtma bo'yicha ovqat yetkazib berish 56.29.0 Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari 56.30.0 Ichimlik yetkazish <i>51310010 Somelye</i> <i>51310008 Ovqatlanish korxonasi titesteri</i> <i>3341 Metrdotel</i> <i>3341 Zal/bar menedjeri</i> <i>3341 Zal administratori</i> <i>3432 Karving san'ati ustasi</i>
5	5	Kasbiy sohada nazariy va amaliy bilimlarning keng doirasi; Ovqatlanish va gastronomiya qoidalarlari; Tovarshunos asoslari; Turizm va mehmondo'st qoidalarlari; Boshqaruv (Menejment) asoslari; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi qoidalarlari; Xavfsizlik texnikasi va hayot faoliyati xavfsizlik qoidalarlari va talablari; Axborot texnologiyalari asoslari; Hujjatlar bilan ishlash tartibi; Boshqaruv asoslari; Dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish tartibi; Yashil iqtisodiyotga o'tish talablari.	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini smena doirasida mustaqil tashkil etish; Xodimlar ishini muvofiqlashtirish; Taom tayyorlash va servis sifati ustidan nazorat o'rnatish; Sanitariya-gigiyena hamda mehnat xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta'minlash; Muammoli vaziyatlarni tezkor hal etish va smena bo'yicha zarur hujjatlar hamda hisobotlarni yuritish.	Mustaqil faoliyat yuritish; Xodimlarni boshqarish; Bo'linmalar ichida vazifalarni belgilash, xodimlar o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, maqsadlarga erishishni nazorat qilish; Shaxsiy ish va bo'linmaning ma'lum bir ish sohasidagi ish natijasi uchun javobgarlik.	56.10.0 Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar 56.30.0 Ichimlik yetkazish 56.21.0 Buyurtma bo'yicha ovqat yetkazib berish 34340002 Bosh qandolatchi 34340001 Barmenlar (bufetchilar, ofitsiantlar,) brigadiri 75122013 Qandolatchilar brigadiri 51200006 Oshpaz-brigadir 34340003 Bosh oshpaz 34340004 Su-shef

					14120005 Restoran direktorining o'rinbosari 14120007 Bo'lim boshlig'i (umumiy ovqatlanish korxonasi va mehmonxonalarda) Keytering va xizmat ko'rsatish menejeri Oziq-ovqat va ichimliklar xizmati menejeri (Food&Beverage) Oziq-ovqat va xizmat ko'rsatish menejeri
6	6	Umumiy ovqatlanish sohasidagi nazariya va asoslarni tanqidiy tahlil qilish uchun ilg'or bilim; Huquq va qonunchilik asoslari; Ovqatlanish va gastronomiya asoslari; Tovarshunos asoslari; Xizmat ko'rsatish etikasi va psixologiyasi usullari; Xavfsizlik texnikasi va hayot faoliyati havfsizlik qoidalari va talablari; Axborot texnologiyalari asoslari; Ommaviy ovqatlanish korxonasini boshqarish asoslari; Xodimlarni boshqarish asoslari; Mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, sanitariya va gigiyena, yong'in va sanoat xavfsizligi, mehnat intizomi asoslari; Dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish usullari;	Umumiy ovqatlanish korxonasi yoki uning yo'nalishi faoliyatini kompleks boshqarish; Ish jarayonlarini rejalashtirish va takomillashtirish; Resurslardan (xodim, mahsulot, vaqt, byudjet) samarali foydalanishni ta'minlash; Taom sifati va xizmat darajasini oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish; Sanitariya va xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilish hamda korxona faoliyati natijalari	Xodimlarni boshqarish; Tashkilotning tarkibiy bo'linmasi ishining natijasi uchun javobgar.	56.10.0 Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar 56.21.0 Buyurtma bo'yicha ovqat yetkazib berish 14120010 Zal (restoran, kafe va boshqalar) boshlig'i 14120005 Restoran boshlig'i (direktori, rahbari, mudiri) 14120008 Umumiy ovqatlanish korxonalarida boshlig'i 14120008 Umumiy ovqatlanish tashkiloti direktori (boshlig'i, rahbari) 14120002 Kafe direktori


		Vaqtni boshqarish usullari; Yashil iqtisodiyot talablari.	yuzasidan tahlil va hisobotlarni shakllantirish.		
7	7	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha innovatsion yondashuvlar va/yoki ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yuqori ixtisoslashgan bilimlar, shuningdek, bir soha yoki turli sohalarga oid o'zaro bog'liq bilimlar	Yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqish va turli sohalardagi bilimlarni birlashtirish uchun ilmiy tadqiqot va/yoki innovatsiyalarda talab qilinadigan muammolarni, shu jumladan, strategik muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan maxsus kasbiy ko'nikmalar	Oldindan aytib bo'lmaydigan sharoitlarda qaror qabul qilish, jamoalar strategik faoliyatini ko'rib chiqish uchun javobgarlik; Yangi strategik yondashuvlarni talab qiladigan murakkab, oldindan aytib bo'lmaydigan kasbiy faoliyat yoki o'quv muhitini boshqarish, loyihalash	
8	8	Murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg'or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar; Restoran va oshxona xizmatlarini strategik rejalashtirish va boshqarish prinsiplari; Oziq-ovqat mahsulotlarini sifat va xavfsizlik standartlariga muvofiq tayyorlash va saqlash tamoyillari; Xizmat ko'rsatish etikasi va mijoz psixologiyasini hisobga olgan operatsion jarayonlarni boshqarish usullari; Vaqtni boshqarish va ish jarayonlarini samarali tashkil etish strategiyalari;	Murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish; Restoran va oshxona xizmatlarini strategik rejalashtirish va boshqarish; Oziq-ovqat mahsulotlarini sifat va xavfsizlik standartlariga muvofiq tayyorlash, saqlash va nazorat qilish; Xizmat ko'rsatish etikasi va mijoz psixologiyasini hisobga olgan operatsion jarayonlarni strategik boshqarish;	O'zining va jamoasining faoliyati hamda ilmiy-tadqiqot natijalari, shuningdek, ularning sanoatdagi, mamlakat va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy va ijtimoiy samarasi uchun yakuniy javobgarlikni o'z zimmasiga olish; Yirik institutsional tuzilmalar va oshxona-restoran bo'limlari faoliyatini strategik tizimda boshqarish; Murakkab ijtimoiy,	

		Ovqatlanish va ichimlik xizmatining xalqaro standartlari va ilg'or amaliyotlarini joriy etish qoidalari; Oshxona va xizmat bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish me'zonlari; PMS va boshqa boshqaruv axborot tizimlaridan foydalanish usullari; Xizmat sifati monitoringi, audit va tahlilni tashkil etish tamoyillari; Shikoyatlar va muammoli vaziyatlarni strategik boshqarish hamda xizmat sifatini tiklash choralarini belgilash qoidalari; Xodimlar faoliyatini boshqarish, motivatsiya qilish va ularning malakasini rivojlantirish tamoyillari; Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish me'zonlari hamda moliyaviy intizomni ta'minlash usullari; Hujjatlar va boshqaruv hisobotlarini yuritish tartiblari; Mehnat muhofazasi, sanitariya-gigiyena va yong'in xavfsizligi bo'yicha me'yoriy talablar va ularni nazorat qilish prinsiplari; Faoliyat natijalarining samaradorligi va xizmat sifatini ta'minlash tamoyillari.	Vaqtini samarali boshqarish va ish jarayonlarini optimal tarzda tashkil etish; Ovqatlanish va ichimlik xizmatining xalqaro standartlarini joriy etish; Oshxona va xizmat bo'limlari faoliyatini kompleks muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish; PMS va boshqa boshqaruv axborot tizimlaridan strategik va tizimli foydalanish; Xizmat sifati monitoringi, audit va tahlilni institut darajasida tashkil etish; Shikoyatlar va muammoli vaziyatlarni strategik boshqarish hamda xizmat sifatini tiklash choralarini belgilash; Xodimlar faoliyatini boshqarish, ularga motivatsiya berish va kompetensiyalarini rivojlantirish; Byudjetlashtirish va xarajatlarni strategik nazorat qilish, moliyaviy intizomni ta'minlash; Hujjatlar va boshqaruv hisobot natijalar bo'yicha	sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish hamda yangi va murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish imkoniyati; Xizmat ko'rsatish standartlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va doimiy integratsiyani ta'minlash mas'uliyati; Resurslardan samarali va barqaror foydalanishni tashkil etish; Xodimlar faoliyatini strategik boshqarish, ularni motivatsiya qilish va kompetensiyalarini rivojlantirish choralarini belgilash; Operatsion va muammoli vaziyatlarda tezkor va strategik qarorlar qabul qilish; Hujjatlar va boshqaruv hisobotlarini institut darajasida yuritish va natijalar bo'yicha yakuniy hisobdorlikni ta'minlash;	
--	--	---	---	--	--

			yakuniy javobgarlikni olish; Mehnat muhofazasi, sanitariya-gigiyena va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini strategik nazorat qilish; Faoliyat natijalarining samaradorligini ta'minlash.	Moliyaviy intizomni ta'minlash va byudjet hamda xarajatlarni strategik nazorat qilish; Mehnat muhofazasi, sanitariya-gigiyena va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini strategik nazorat qilish; Tashkilotning uzoq muddatli rivojlanish va jamiyatning texnik, ijtimoiy hamda madaniy taraqqiyoti maqsadlariga erishish uchun barcha faoliyat natijalarining samaradorligi va sifatini yakuniy javobgarlik asosida ta'minlash.	
--	--	--	--	--	--


7. Tarmoqning funksional xaritasi

Turizm sohasi va unga mansub bo'lgan kasblar funksional xaritasi





- Kasbiy faoliyat turi
- Kasb va lavozimlar
- MMK 2025 da keltirilgan kasblar

Mehmonxona xizmati sohasi va unga mansub bo'lgan kasblar funksional xaritasi



Umumiy ovqatlanish xizmati sohasi va unga mansub bo'lgan kasblar funksional xaritasi





- Iqtisodiy faoliyat turi.
- Kasblar/lavozimlar
- MMK 2025 da keltirilmagan kasblar

**8. Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot
(korxona)lar to'g'risida ma'lumot:**

№	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	Turizm qo'mitasi rais o'rinbosari, Kengash raisi o'rinbosari	Bobokalonov Suhrobjon Ramazonovich
2.	Turizm qo'mitasi bo'lim boshlig'i	Matkarimov Jahongir Shamuratovich
3.	Turizm qo'mitasi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi	Mansurov Zokir Xusanovich
4.	Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti direktori	Golisheva Yelena Vyacheslavovna
5.	Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti bosh mutaxassisi	Ivonina Nataliya Viktorovna
6.	Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti bosh mutaxassisi	Boyko Farida Chingizovna
7.	"Oshpazlar uyushmasi" raisi	Umarov Akbar Xamdamovich
8.	"Tes Tour" MCHJ direktori	Xayrullina Lyusiya
9.	"Tashkent Palace New" MCHJ direktori	Kaziyeva Nargiza Rustamovna
10.	"O'zbekiston gidlar uyushmasi" raisi	Salomova Nargiza Tolibovna
11.	"O'zbekiston mehmonxona xo'jaliklari uyushmasi" raisi	Abdullayeva Farangiz Abdullayevna
12.	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.	Norchayev Asatullo Norbutayevich
13.	"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti dotsenti, i.f.d.	Kuvandikov Sardor Akbarovich
14.	"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti dotsenti, i.f.d.	Zoxidov Firuz Faxritdinovich
15.	O'zbekiston oshpazlar uyushmasi bosh texnologi	Umaraliyev Tolibjon Qo'chqoraliyevich
16.	O'zbekiston oshpazlar uyushmasining sog'lom ovqatlanish bo'yicha bosh texnologi	Sodiqov Abdurashid Raziqovich
17.	O'zbekiston oshpazlar uyushmasining master shef texnologi	Xamdamov Axmad Akbar o'g'li
18.	Bo'stonliq turizm va madaniy meros texnikumi maxsus fan o'qituvchisi	Maxkamova Maftuna Tojiddinovna
19.	Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi maxsus fan o'qituvchisi	Xalikova Nigora Sultonbekovna
20.	Buxoro turizm va madaniy meros texnikumi maxsus fan o'qituvchisi	Zokirova Dilnoza Sharipovna
21.	Samarqand turizm va madaniy meros texnikumi maxsus fan o'qituvchisi	Umarova Fotima Umarjonovna

Mazkur Tarmoq malaka ramkasi Turizm sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 12-mart 2026-yildagi 1-son yig'ilishida muhokama qilindi.

Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining 14-yanvar 2026-yildagi TMR-013-son xulosasi.

TURIZM, MEHMONXONA VA UMUMIY OVQATLANISH SOHASI TARMOQ MALAKA RAMKASI



Turizm sohasida kasbiy malakalarni
rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi

